

## TARBIYACHINING PEDAGOGIK FAOLIYATIGA KREATIV YONDASHUVNI SHAKLLANTIRISH

*Mirzoyeva Nigora*

*O'zbekiston-Finlandiya*

*pedagogika instituti o'qituvchisi*

*Berdimurodova Saida*

*Sharof Rashidov nomidagi*

*Samarqand davlat universiteti Urgut filiali talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarbiyachilarning pedagogik faoliyatida kreativ yondashuvni shakllantirishning ahamiyati va uning metodologik asoslari haqid so'z yuritilgan. Maqolada kreativ yondashuvning samarali usullari, tarbiyachilarning o'z pedagogik faoliyatida ijodkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar va bunday yondashuvning bolalar bilan ishlashdagi ahamiyati haqida qisqacha so'z yuritilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается значение формирования творческого подхода в педагогической деятельности педагогов и его методические основы. В статье рассматриваются эффективные методы творческого подхода, рекомендации, направленные на развитие творческих способностей воспитателей в их педагогической деятельности, а также значение такого подхода в работе с детьми.

**Annotation:** This article examines the importance of forming a creative approach in the pedagogical activities of educators and its methodological foundations. The article examines the effective methods of a creative approach, recommendations aimed at the development of creativity of educators in their pedagogical activities, and the importance of such an approach in working with children.

**Kalit so'zlar:** kreativ yondashuv, tarbiyachi, pedagogik faoliyat, innovatsiya, ijodkorlik, pedagogik metodlar, mashg'ulot jarayoni.

**Ключевые слова:** творческий подход, педагог, педагогическая деятельность, инновация, творчество, педагогические методы, учебный процесс.

**Keywords:** creative approach, educator, pedagogical activity, innovation, creativity, pedagogical methods, training process.

Bugungi kunda talim tizimida, xususan mакtabgacha ta'lим tashkilotlarida ta'lим-tarbiyaning samarodorligi ko'plab omillarga bog'liq. Pedagogik faoliyatda kreativ yondashuvni shakllantirish, ayniqsa tarbiyachilarning o'z ishiga ijodiy yondashuvi ta'lим-tarbiya jarayonini yanada sifatli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Pedagogik faoliyatda kreativ yondoshuvning ahamiyati qanday? Kreativlik o'zi nima?

degan bir qancha savollar tug‘ilishi mumkin. Kreativlik (lot., ing. “create ”yaratish”, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma’nosini ifodalaydi.

Tarbiyachining kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, mashg‘ulot jarayonida, nutqida va muayyan bir faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachining kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning mashg‘ulot jarayonida bir xil qolipda fikrlamaslik, mashg‘ulotga ijodiy yondashish, o‘ziga xoslik, yangi va innovatsion metodlarni qo’llashni, xususan bolalar bilan ishlash jarayonida ijodkorlikni rivojlantirishni ham nazarda tutadi.

Tarbiyachi – pedagoglarda kreativlikni tarbiyalash mezonlari-kasb talablariga javob beruvchi maxsus bilim, ko‘nikma, malaka va shaxs sifatlar majmuasidan iborat. U ijtimoiy foydali natijalarni olishga yo‘naltirilgan bo‘lib, pedagogning o‘z-o‘zini boshqarish natijasida shakllantiriladi. [1]

Tarbiyachining kreativligi bolalarni faqatgina bilim bilan ta’minlash emas, balki ularni erkin va har tomonlama fikrlash, yangiliklarni qabul qilish va o‘z fikrlarini erkin bayon qilish imkoniyatini ham yaratadi. Tarbiyachilarining kreativligi asosan mashg‘ulotlar jarayonida, qolaversa tajriba ortirish evaziga o‘z ustida ishslash natijasida, yangi bilimlarni o‘zlashtirishi evaziga rivojlanib, shakillanib boradi. Tarbiyachilar o‘z faoliyatida bolalarning individual xususiyatlarini ham hisobga olishi va yangi usullarni joriy etishlari kerak. Buning uchun tarbiyachi yangicha fikrashi, innovatsion yondashuvlar asosida bolalarning qiziqishlarini uyg‘otishi va ularga muvaffaqiyatli motivatsiya bera olishlari kerak.

Mashg‘ulot jarayonida tarbiyachining ijodkor yoki kreativ bolishi eng yuqori darajada emas, balki mashg‘ulotlarni kreativlik ruhida tashkil etishi, ya’ni bor iste’dodini o‘z o’rnida sarflay bilishlik muhim sanaladi.

### **Tarbiyachi qanday tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarur?**

Keng dunyoqarash	Kommunikativlik
Tashabbuskorlik	Qobiliyatlichkeit
Kreativ tafakkur	Mukammal bilim
Tashkilotchilik	Kasbiy refleksiya

Tarbiyachi- pedagog doim mas’uliyatni his qilishi lozim. Uning kreativ tafakkuridagi aqlning peshqadamligi va egiluvchanligini maxsus abstrakt mashqlar va

bilimlar asosida tarbiyalash mumkin. Kreativ tafakkur maqsadga yo‘naltirilgan, ammo shu vaqtgacha ma’lum bo‘lmagan va an’anaviy tarzda tajribaga kiritilmagan batamom yangi usul, yo‘l, vositalarning tanlanishi va ishlab chiqilishini anglatadi.

Kreativ yondashuvning bolalar bilan ishslashdagi ahamiyati ham juda katta. Tarbiyachining ijodiy yondashuvi, ayniqsa bolalar bilan bevosita ishslashda juda katta ahamiyatga ega. Kreativlik, bolalarning ijodkorlik va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, tarbiyachining kreativligi bolalar uchun motivatsiya manbai bo‘lishi, ularning o‘zgaruvchan dunyoga moslashishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda pedagogik faoliyatda kreativ yondashuvni shakillantirish tarbiyachilarining professional mahoratini oshirish va bolalar bilan samarali ishslash uchun muhim hisoblanadi. Tarbiyachilar pedagogik faoliyatda yangiliklarni qo‘llashga tayyor bo‘lishi, bolalarning qiziqishlarini uyg‘otib, ularni rivojlantirishi lozim. Bu o‘z navbatida o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali bo‘lishiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. X. Meliyev, O. Jamoldinova. K. Risqulova. «Tarbiyachining kasbiy kompetenti va mahorati »o‘quv qo‘llanma – Тошкент: Zarvaraq nashriyoti, 2021 – 288 б.
2. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. Издательско-полиграфический творческий дом им. Чулпана. Т.; 2005. -200 с.
3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., va b.qalar. – Toshkent, 2015. – 120 b.
4. Umumiy pedagogika Darslik 1-qism /O.Musurmanova va boshq. – Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020. -376 b.
5. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. - Т: О‘qituvchi, 1990.